


“TASDIQLAYMAN”
Toshkent Pediatriya Tibbiyot
instituti rektori
B.T.Daminov

2022-yil “06” 10



“TASDIQLAYMAN”
Klinika “UROLOGIC COMPLEX”
MChJ
Bosh Shifokor O.M.Rahmonov

2022-yil “05” 10



O‘zaro hamkorlik aloqalari bo‘yicha
SHARTNOMA № 94

Tashkent shahri

2022-yil “05” 10

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son Farmoni hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-iyundagi “Oliy ta‘lim sohasidagi islohotlar natijadorligi hamda yangi o‘quv yiliga tayyorgarlik jarayonlari to‘g‘risida” o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishi 34-sonli bayoni ijrosini ta‘minlash maqsadida *Toshkent Pediatriya Tibbiyot instituti Akusherlik va ginekologiya, bolalar ginekologiyasi bilan kafedrasida* (keyingi o‘rinlarda Kafedra) nomidan (bir tomondan) Institut Ustavi asosida rektor *B.T.Daminov*, *Klinika “UROLOGIC COMPLEX” MChJ* (keyingi o‘rinlarda Tashkilot), ikkinchi tomondan Tashkilot Ustavi asosida *Bosh Shifokori O.M.Rahmonov*. o‘rtasida o‘zaro hamkorlik aloqalari bo‘yicha shartnoma tuzildi.

1. Umumiy qoidalar

Oliy ma‘lumotli mutaxassislarni tayyorlash sifatini oshirishda akusherlik va ginekologiya va bolalar ginekologiyasi sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish orqali respublika oliy ta‘lim tizimida yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning mazmunini mamlakatning sog‘liqni saqlash, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollari, jamiyat ehtiyojlari, ilmfan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda tubdan takomillashtirish maqsadida quyidagi yo‘nalishlarda hamkorlik amalga oshiriladi:

1.1. Kafedra va Tashkilotning o‘zaro samarali hamkorligini yo‘lga qo‘yish.

1.2. Tashkilotning mutaxassislar tayyorlash sifatiga bo‘lgan talablarini bevosita ta‘lim mazmunini shakllantirishda Kafedra professor-o‘qituvchilari tomonidan tizimli o‘rganib borilishini tashkil etish maqsadida stajirovkalar joriy qilish.

1.3. Rivojlangan xorijiy davlatlarning eng ilg'or tajribasini o'rgangan hamda Tashkilotning mutaxassislariga bo'lgan talabidan kelib chiqqan holda o'quv rejalari, fan dasturlari, o'quv adabiyotlari, shu jumladan o'quv-metodik komplekslarni xalqaro standartlar asosida, zamonaviy, mutlaqo yangi talablar asosida ishlab chiqilishi va bosqichma-bosqich joriy etilishini tashkil qilishni o'zaro hamkorlikda amalga oshirish.

1.4. Hamkorlikda Tashkilotni istiqbolli rivojlantirish dasturini hisobga olib, oliy malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyojini yillar kesimida aniq manzilli, ta'lim yo'nalishi hamda mutaxassisligini ko'rsatgan holda, aniq balans beradigan hisob-kitoblar asosida ishlab chiqish.

1.5. Kafedraning ta'lim yo'nalishida zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalari asosida ilmiy-tadqiqot ishlarini hamkorlikda bajarish va qo'llash.

1.6. Tashkilotning muammolarini o'rganish va ularning yechimi bo'yicha ilmiy hamda amaliy takliflar ishlab chiqish. Ilmiy maqolalar tayyorlash va ularni nashr qilish.

1.7. Hamkorlikda seminarlar o'tkazish.

1.8 Tashkilotda kafedralar filiallarini ochish.

1.9. Tashkilotda talabalar amaliyotini tashkil etish hamda bo'sh ish o'rinlariga bitiruvchilarni ishga joylashtirish choralarini ko'rish.

1.10. Kafedra o'qituvchilarining korxonada amaliy tadqiqotlar o'tkazishiga sharoit yaratib berish.

1.11. Tashkilotning tegishli xodimlari tomonidan kafedra bitiruvchilarini seleksiya qilish asosida ularni amaliyotga va ishga qabul qilish bo'yicha tizimli ishlarni yo'lga qo'yish.

1.12. Hamkorlikda Tashkilotni istiqbolli rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish.

1.13. Professor-o'qituvchilarning amalga oshiradigan ilmiy-tadqiqotlarini tijoratlashtirishda hamkorlik qilish;

1.14. Mazkur shartnomaning tuzilishi va undagi shartlarning bajarilishi Kafedra va Tashkilot orasida tuziladigan o'zaro manfaatli boshqa shartnomalarga zid bo'lmasligi shart.

2. O'zaro hamkorlik bo'yicha Kafedraning vazifalari

2.1. Kafedraning sohaga oid ta'lim yo'nalishidagi har bir talabasini, shu jumladan klinik ordinatura, magistratura, bakalavrlar 4-5-6 bosqichdan boshlab Tashkilotda malakaviy amaliyotlarni tizimli ravishda o'tkazilishini hamda ixtisoslik fanlarining amaliy mashg'ulotlarini bevosita ishlab chiqarishda tashkillashtirish.

2.2. Kafedraning soha mutaxassisligi bo'yicha bitiruvchilarini Tashkilotga ishga joylashtirish bo'yicha aniq choralar ishlab chiqish.

2.3. Ishlab chiqarish, ilm-fan va ta'lim o'rtasida integratsiyani chuqurlashtirish maqsadida Tashkilotga tegishli ilmiy-texnik rivojlantirish yo'nalishlari muammolari mavzulari bazasini shakllantirishda ishtirok etish.

2.4. Tashkilotning ilmiy-texnik rivojlantirish muammolarini Kafedra bilan xo'jalik shartnomalarini tuzgan holda amalga oshirish, xo'jalik shartnomalarini bajarish ishlariga doktorantlar, magistrantlar klinik ordinatorlar va iqtidorli talaba yoshlardan iborat tadqiqotchilarni tizimli ravishda jalb qilishni tashkil etish.

2.5. Kafedra professor-o'qituvchilari, ilmiy xodimlari va talabalari bilan Tashkilotga oid yangiliklar, rivojlantirish istiqbollari, ta'lim mazmunini takomillashtirish, ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirish va kelgusidagi vazifalarni belgilab olish yuzasidan uchrashuvlar o'tkazib borishni amalga oshirish.

2.6. Institutning soha yo'nalishlariga mos kafedralari qoshida oliy ta'lim, ilm-fan va ishlab chiqarish o'rtasidagi innovatsion korporativ hamkorlik guruhlarini shakllantirish;

2.7. O'quv materiallarini Tashkilotning istiqbolli vazifalari va muammolari asosida yangilash va boyitib borish;

2.8. Tashkilot rahbari va mutaxassislarini bitiruvchilarning yakuniy davlat attestatsiyalarida ishtirok etishi uchun sharoit yaratish;

2.9. Talabalarni ish joylariga dastlabki taqsimlashni bitiruvchi kurs so'ngida emas, balki mos ravishda tahsil olayotgan davrda o'tkazish va barcha turdagi amaliyotlarni Tashkilotda o'tashni yo'lga qo'yish.

3. O'zaro hamkorlik bo'yicha tashkilotning vazifalari

3.1. Kafedraning sohaga mos yo'nalishlari bo'yicha Tashkilotda filiallarini ochishga yordam berish.

3.2. Kafedraning ta'lim yo'nalishidagi har bir talabaning shu jumladan klinik ordinatura, magistratura, bakalavrlar 4-5-6 bosqichdan boshlab Tashkilotda malakaviy amaliyotlarni tizimli ravishda o'tkazilishiga ko'maklashish va ixtisoslik fanlarining amaliy mashg'ulotlarini bevosita ishlab chiqarishda tashkillashtirishni amalga oshirishga sharoit yaratish, sohaga mos ta'lim yo'nalishlari mutaxassisliklari bo'yicha bitiruvchilarni ishga joylashtirish bo'yicha aniq choralar ko'rish.

3.3. Ishlab chiqarish, ilm-fan va ta'lim o'rtasida integratsiyani chuqurlashtirish maqsadida Tashkilotga tegishli ilmiy-texnik rivojlantirish yo'nalishlari muammolari mavzulari bazasini shakllantirishda ko'maklashish.

3.4. Tashkilotga tegishli ilmiy-texnik rivojlantirish yo'nalishlari muammolari bo'yicha Kafedra (Institut) bilan xo'jalik shartnomalarini tuzish.

3.5. Kafedra professor-o'qituvchilari, ilmiy xodimlari va talabalari bilan korxonaga oid yangiliklar, rivojlantirish istiqbollari, ta'lim mazmunini takomillashtirish, ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirish va kelgusidagi vazifalarni belgilab olish yuzasidan uchrashuvlar o'tkazib borishga sharoit yaratish.

3.6. Kafedra ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari talabalari uchun, akusherlik va ginekologiyada yangi texnologik jarayonlari va Tashkilotga tegishli ilmiy-texnik rivojlantirish yo'nalishlari muammolari bo'yicha Tashkilotning yetakchi mutaxassislari tomonidan ma'ruzalar o'qishni tashkillashtirish.

3.7. Tashkilotga tegishli ilmiy-texnik rivojlantirish yo'nalishlari muammolari bo'yicha bitiruv malakaviy ishi va magistrlik dissertatsiyalari mavzularini shakllantirishda amaliy yordam berish, shart-sharoitlar yaratish.

3.8. Institutning sohaga mos ta'lim kafedralari qoshida shakllantiriladigan oliy ta'lim, ilm-fan va ishlab chiqarish o'rtasidagi innovatsion korporativ guruhlariga Tashkilotning yetuk mutaxassislarini birlashtirish;

3.9. Kafedra o'qituvchilarining tashkilotda amaliy tadqiqotlar o'tkazishga sharoit yaratib berish;

3.10. Tashkilotning mutaxassislar tayyorlash sifatiga bo'lgan talablarini tizimli o'rganib borilishini tashkil etish maqsadida stajirovkalarga kelgan Kafedra professor-o'qituvchilari uchun sharoitlar yaratib berish;

3.11. Ta'tillar davrida Kafedra talabalarini korxonada vaqtinchalik ish bilan ta'minlash;

3.12. Tashkilotdagi bo'sh vakant o'rinlarni malakali bitiruvchilar bilan to'ldirib borish;

3.13. Tashkilot rahbari va mutaxassislarini bitiruvchilarning yakuniy davlat attestatsiyalarida ishtirok etishini ta'minlash;

3.14. Kafedra talabasiga Tashkilot mas'ul xodimini birlashtirish, bunda birlashtirilgan xodim amaliyotchi bilan ishlash ko'nikmasiga ega bo'lishini ta'minlash, Tashkilotda amaliyotchidan unumli foydalanishni yo'lga qo'yish, amaliyotchilar uchun ish joyi va amaliyot davrida foydalanish uchun zaruriy materiallar ajratilishini tashkil etish.

4. Shartnomaning bajarilish muddati

4.1. Bu shartnoma imzolangan kundan boshlab 5 yil muddatga amal qiladi.

4.2. Shartnomada ko'rsatilgan ishlarni to'liq va samarali bajarish uchun har o'quv yilida tadbirlar tuziladi va tasdiqlanadi.

4.3. Qo'shimcha kelishuv asosida bu shartnomaning muddati uzaytirilishi, o'zgarishi yoki bartaraf etilishi mumkin.

4.4. Shartnoma uch nusxada tuziladi va bir xil yuridik kuchga ega.

**Toshkent Pediatriya Tibbiyot
instituti Akusherlik va ginekologiya, bolalar
ginikologiyasi kafedrasi bilan**

100115, Toshkent sh., Yunus-Obod tumani,
Bog'ishamol ko'chasi 223

Tel (8-371)2623314: Faks:(8-371)2623314

Klinika "UROLOGIC COMPLEX" MChJ



100123, Toshkent sh., Uchtepa tumani,
M.Shayxzoda ko'chasi, 7

Tel: +99878 140 0303

info@urologic.uz